

**EKOLOGIK SOLIQQA TORTISHNING XALQARO TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASIDA SOLIQQA TORTISHNING EKOLOGIK YO‘NALTIRILGANLIGINI
KUCHAYTIRISH YO‘LLARI****Turanboyev Boburjon Qodirjon o‘g‘li**

Qo‘qon universiteti “Xalqaro turizm va iqtisodiyot” kafedrası o‘qituvchisi

e-mail: boburturonboyev@gmail.com

Annotatsiya. Ko‘plab rivojlangan mamalakatlar yashil soliq siyosat yorqali nafaqat iqtisodiy o‘shishga erishishmoqda, balki ular atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va tabiat ne‘matlarini asrashga soliq to‘lovchilarni o‘rgatmoqdalar. Chunki, ekologik soliqlar atrof-muhitni himoya qilish bilan birgalikda davlat budjeti daromadlarini o‘shishini ham ta‘minlaydi va soliq to‘lovchilarni cheklangan tabiiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishga undaydi.

Kalit so‘zlar: yashil soliq siyosati, tabiiy resurslar uchun soliq, ekologik soliqlar, budjet tushumlari

Kirish:

Xozirgi kunda ko‘plab rivojlangan davlatlarda “Yashil soliq” (Green Tax) siyosatiga amal qilinmoqda. Ushbu siyosat orqali nafaqat iqtisodiy o‘shishga erishishmoqda, balki ular atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va tabiat ne‘matlarini asrashga soliq to‘lovchilarni o‘rgatmoqdalar. Chunki, ekologik soliqlar atrof-muhitni himoya qilish bilan birgalikda davlat budjeti daromadlarini o‘shishini ham ta‘minlaydi va soliq to‘lovchilarni cheklangan tabiiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishga undaydi.

Mavzuning dolzarbligi. Jamiyat ehtiyojlarining cheksizligi va tabiiy resurslarning cheklanganligi, ular ko‘pchiligining qayta tiklanmasligi mavjud tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanish evaziga jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini to‘liqroq qondirishga erishish zaruratini taqozo etadi. Tabiiy resurslardan unumli foydalanish va tejamkorlikni kuchaytirish uchun ekologik soliq siyosatini olib borish samaraliroqdir.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Soliqqa tortishning ekologik yo‘naltirilganligini kuchaytirishning ahamiyati va yo‘nalishlari haqidagi ko‘plab xorijiy xamda maxalliy adabiyotlar mavjud bo‘lib, ulardan Bovenberg va Mooij (1997) [1], Amundsen va Schb (1999) [2] va yana ko‘plab olimlarning ilmiy adabiyotlarida ekologik soliqlarning atrof muhit ximoyasi, tabiiy resurslarni tejash va iqtisodiy o‘shish uchun muxim ekanligi qayd etilgan. Ayrim olimlar ekologik soliqlar ta‘sirini o‘rganish va taxlil qilish uchun ekonometrik xisob kitoblardan foydalanishgan, Ekins va boshqalar (2011) [3], Evropada ETR (Environmental Tax Reform) ta‘sirini o‘rganish uchun ekonometrik modellashtirish usulini qo‘llab ko‘rganlar va ularning natijalari shuni ko‘rsatadiki, ETR nafaqat uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishga olib kelishi, balki atrof-muxitga foyda keltirishi mumkinligini aniqlashadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotimizda chuqur ilmiy mushohada, tasviriy statistika va sintez tahlildan foydalanildi. Statistik malumotlarni yozma tahlil etilib, yakuniy xulosa chiqarildi va muhim takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natija. Ekologik soliqlar atrof-muhit muammolarini xal qilishda samarali vosita xisoblanadi. Masalan, kompaniyalarni yangi xalqaro raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatini beradigan yangi ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqishga undaydi. 1999-yilda Germaniya xukumati tomonidan ekologik soliq isloxoti to‘g‘risidagi qonunni qabul qilindi, unga binoan neft va gaz uchun soliq stavkalarini bosqichma-bosqich oshirib borildi va elektr energiyasidan foydalanlik uchun yangi yig‘im joriy etildi. Boshidanoq, u xom neft narxining ko‘tarilishi va sanoatning raqobatbardoshligidan xavotirga tushganlar tomonidan, ommaviy qarshilikka duch keldi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar shunchalik katta ediki, ko‘plab kuzatuvchilar energiya solig‘i bo‘yicha loyixani partizan siyosatining qurboni bo‘lishini kutishdi. Shunga qaramay, 2006 yilda, Yevropa Ittifoqining yangi qonunchiligi va Germaniyada xukumatning o‘zgarishi bilan Germaniyada energiya soliqlariga yangi bosqichiga o‘tili. O‘sha yili qonunchilik uyg‘unlashtirilgan ta‘riflar, soliq qoidalari va imtiyozlar orqali energiya maxsulotlarining umumiy soliq bazasini belgilab beruvchi Energiya solig‘i bo‘yicha keng qamrovli qonun qabul qildi. Ushbu muxim qadam Germaniyada energiya soliqlari tizimining to‘liq qayta ko‘rib chiqilishiga olib keldi. Elektr energiyasi, neft va gaz uchun soliq imtiyozlari sanoat, qishloq va o‘rmon xo‘jaligi sohalariga tadbir etilib, xizmat ko‘rsatish va xususiy uy xo‘jaliklariga esa ko‘proq soliq solindi. Ushbu isloxlarning Germaniya davlati budjetiga ta‘sirini tahlil etib ko‘radigan bo‘lsak, 1999-yilda ekologik soliq siyosatining joriy etilishi 2005-yilga qadar ekologik soliqlardan tushadigan daromadning sezilarli darajada o‘shishiga olib keldi. Ekologik soliqlardan tushgan daromadlar 2010-yilga kelib bir oz pasaydi, chunki Ekologik soliq siyosati soliq to‘lovchilarni gaz, neft va elektr energiyasidan tejamkor foydalanishga olib keldi. Narxlarning ko‘tarilishi va inflyatsiya budjet daromadga tag‘sir ko‘rsatmadi, chunki ekologik soliqlarning stafkasi past edi (masalan, elektr energiyasining kilovatt soati uchun 2 sent).

Ekologik soliqlar 2000-yildan 2018-yilgacha 23,5% ga o‘sd, umumiy soliqlar esa 66,1% ga oshdi. Shuningdek 2018 yilda atrof-muxitga soliqlar 59,5 milliard yevroni tashkil etdi. Umumiy soliq tushumidagi ekologik soliqlarning ulushi atigi 7,7 foizni tashkil etib, bu esa 1995-yildan beri eng past ko‘rsatkich bo‘ldi. Ekologik soliqlarning stafkasi 1995-yildan beri yilma-yil sezilarli darajada oshirildi. Biroq, 2009-yildan 2018-yil oralig‘ida ularning umumiy soliqlardagi ulushi doimiy ravishda pasayib borgan. Bu o‘z navbatida soliq to‘lovchilarning tabiiy resurs va energiyani tejab foydalanayotganlaridan darak beradi [4].

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqotimizda o‘rganilgan adabiyotlar va xorijiy davlat tajribasidan kelib chiqib, atrof muxitga zarari kam soliq to‘lovchilarni rag‘batlantirish uchun soliq imtiyozlari joriy etilishi maqsadga muvofiq degan fikrdamiz. Masalan, yurtimizda yer solig‘i imtiyozini bekor qilish va ushbu imtiyozlarni soliq to‘lovchi faoliyatini ekologik zararligi darajasiga qarab mulkiga yo‘naltirish samaraliroqdir. Faqat tabiiy resurs soliqlari bilan cheklanib qolmasdan, ekologik soliqlarni bosqichma-bosqich joriy etish zarur, soliq to‘lovchiga ekologiyaga yetkazayotgan zarari uchun soliq to‘layotganini sezdirish orqali tejamkorlikka undashimiz lozim. Bunda energetika uchun maxsus soliq joriy etgan xolda energiya tejamkorligiga erishsak bo‘ladi va yana avtotransport vositalari uchun ham ekologiya solig‘ini joriy etish darkor, chunki yurtimizda havoning ifloslanishida ularning o‘rni kattadir. Bu bilan biz oqilona soliq siyosatini targ‘ib etib,

atrof muhitni ximoya qilishda soliqlarning rolini oshirish bilan bir qatorda Respublikamizning budjeti daromadlarini ham o‘shirishga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1) Bovenberg AL, Mooij RA. Environmental tax reform and endogenous growth. *J Public Econ.* 1997; 63(2): 207–237.
- 2) Amundsen ES, Schb R. Environmental taxes on exhaustible resources. *Eur J Polit Econ.* 1999; 15(2): 311–329
- 3) Ekins P, Pollitt H, Barton J, Blobel D. The implications for households of environmental tax reform (ETR) in Europe. *Ecol Econ.* 2011; 70(12): 2472–2485
- 4) Melissa Keeley, Michael Mehling, How Germany Became Europe’s Green Leader: A Look at Four Decades of Sustainable Policymaking. Page 51-63 (2011), Germany
- 5) Khursanaliev, B. (2023). THE IMPACT OF POPULATION GROWTH ON THE COUNTRY'S ECONOMIC DEVELOPMENT. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1, 8-11.
- 6) Boburmirzo, K., & Boburjon, T. (2022). Exchange rate influence on foreign direct investment: empirical evidence from cis countries. *International Journal Of Management And Economics Fundamental*, 2(04), 19-28.
- 7) Ruziev, S., Rasulov, H., & Yusupov, A. (2022). MEHMONDO‘STLIK VA TURIZM SANOATIDAGI BOSHQARUV SOXALARIDA GENDER XILMA-XILLIGI. *PEDAGOGS jurnali*, 2(2), 156-173.
- 8) Rasulov Hamidjon Yakubovich. (2023). QABUL QILINGAN TA‘LIM SIFATINING TURIZM VA MEHMONDO‘STLIK TALABALARINING KASB TANLASHIGA TA‘SIRI: AKADEMIK SAMARADORLIKNING VOSITACHILIK TA‘SIRI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 8(8), 62–65. <https://doi.org/10.54613/ku.v8i8.805>
- 9) Yusupov, A. A. (2023). KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA INSON RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 7, 46-48.
- 10) Aliyevich, Y. A. (2023). O ‘ZBEKISTON IQTISODIY SHAROITIDA INSON RESURSLARIDAN FOYDALANISHDAGI FAOLIYAT TURLARI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1, 76-78.
- 11) Umarov, O. (2023). O ‘ZBEK TURIZMNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O ‘RNI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 234-236.
- 12) Omonjon, U. (2023). ISH BILARMONLIK VA MICE TURIZMNI AXAMYATI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 249-250.
- 13) Qodirjon o‘g‘li, T. B. (2024). SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ TA‘SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 37(1), 151-153.
- 14) Boburjon, T. (2024). SOLIQQA TORTISHNING EKOLOGIK YO ‘NALTIRILGANLIGINI KUCHAYTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI TAHLILI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 37(1), 145-150.

15) Ogli, T. B. Q. (2021). XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARNING TABIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHGA ERISHISHLARIDA SOLIQLARNING TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(1), 246-250..

16) Mamurjonovich, U. T. (2023). JAHON IQTISODIYOTIDA YANGI INDUSTRIAL DAVLATLARNING TUTGAN O'RNI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 344-345.

17) Umarov Toxirjon Mamurjonovich. (2024). ERKIN IQTISODIY ZONALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA INNOVATSIYALAR VA INVESTITSIYALARNI RAG'BATLANTIRISHDA KLASTER YONDASHUVINING O'RNI. *INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES*, 1(1), 156-167. Retrieved from <https://universalconference.us/universalconference/index.php/ICNSHS/article/view/277>

18) Turanboyev, B. (2024). O 'ZBEKISTON FOND BOZORIDA AKSIYALAR SAVDOSINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI TAHLILI. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 5-8.

19) Turanboyev, B. (2024). ILG'OR XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA ELEKTRON TIJORAT FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 1-4.